

ETNOSENTRIZM FENOMENINING IJTIMOIY-FALSAFIY ILDIZLARI

Murtozayeva Muqaddas Sohiq qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada etnosentrizm muammosi, bu hodisaning tabiatini va uning paydo bo'lishi va rivojlanishi sabablari ko'rib chiqiladi. Bir etnik guruhning boshqa etnik guruhlar va madaniyatlarga nisbatan madaniyati, urf-odatlari va urf-odatlari yuksalishining kelib chiqishi ko'rsatilgan.

Kalit so`zlar: etnomilliylilik, etnosentrizm, madaniy nisbiylik, etnosentrizmni tarixi, fashizm, etnik streotipler

Hozirgi zamonaviy dunyo bo`ylab iqtisodiy, siyosiy, madaniy va diniy integratsiya va birlashish jarayoni jadal rivojlanmoqda. Bu jarayon zamonaviy inson hayotining barcha jabhalariga o`z ta'sirini ko`rsatishda davom etmoqda. Moziydan saboq olgan holda, insoniyat o`zining umumiy maqsadini aniqlab olishi joiz. Buyuk ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy asrda, har bir mamlakatlar va xalqlar o`zining o`ziga xosligini izlash dolzarb mavzu bo`lib qolmoqda.

Jamiyat ayni vaqtida etnomilliyligini saqlab qolishga intilmoqda, ammo bu jarayon boshqa millatlarni o`z dunyo qarashi va tajribalariga asosan o`zini boshqalardan ustun ko`rishiga sababchi bo`lib qolmasligi darkor. Etnosentrizmni quyidagicha ta`riflash mumkin, bu o`z cheklangan tajribamizga asoslanib boshqalarning tutgan yo`llari haqida yolg`on tahminlar qilish. Bu jarayonda biz tahminlarga tayanamiz va o`z me`yorlarimizdan kelib chiqqan holda ularning madaniyati va qadriyatiga baho beramiz. Bu jarayon turli millat, irq va diniy jihatdan bo`linishga olib keladigan asosiy omil hisoblanadi. Etnosentrik o`zining parametrleridan kelib chiqqan sabablarga ko`ra, o`zlarini boshqa shaxslardan yaxshiroq ekanligiga ishonishadi [1].

Boshqalarga nisbatan o`z madaniyatiga yuqori baho beradi va boshqa madaniyatni baholash uchun o`zining dunyo qarashi va namunalaridan foydalanadi. Etnosentrizm g`oyasiga qarshi bo`lgan tushuncha bu madaniy nisbiylikdir. Har bir insonda madaniy nisbiylik tushunchasi shakllanishi lozim, bu individual e`tiqod va qadriyatlar madaniy jihatdan nisbiy ekanligi haqidagi qarash hisoblanadi. Aniqroq qilib aytganda, hech qanday etnik guruh dunyoqarashidan kelib chiqqan holda o`zining madaniyatini har qanday tarzda boshqalarning e`tiqod va qadriyatlaridan ustun deb aytishga haqli emas. Bir madaniyat

VOLUME-2, ISSUE-2

uchun to`g`ri bo`lgan narsa boshqa madaniyatda noto`g`ri bo`lishi mumkin va bu yomon holat emas.

Olimlarning fikricha, “etnosentrizm” atamasini XIX asrda polshalik sotsiolog Lyudvig Gumplovich tomonidan ishlab chiqilgan, Biroq u kontseptsiyani ixtiro qilishdan farqli o`laroq uni faqat ommalashtirgan. U bu atamaga quyidagicha ta`rif beradi: “Har bir guruh odamlari o`zining nafaqat zamondosh xalqlar orasida, balki tarixiy o`tmishdagi barcha xalqlarga nisbatan hamisha eng yuqori pog`onani egallab kelganiga ishonishi” [1]. Keyinchalik, XX asrda amerikalik ijtimoiy olim Uilyam Sumner 1906-yilda chop etilgan “Folkways” kitobida ikki xil ta`rifni taklif qiladi “o`z guruhini hamma narsaning markazi bo`lgan narsalarga qarashning texnik nomi, qolgan guruhlarni esa unga qiyoslaydi va baholaydi” [2]. 1911-yilda chop etilgan “Urush va boshqa ocherklar” asarida u shunday deb yozgan edi: “bu birdamlik, ichki o`rtoqlik va ichki guruhlarga sadoqat tuyg`usi, bu o`z-o`zidan har qanday tashqi guruhdan ustunlik hissi va ichki guruh manfaatlarini tashqi guruhga nisbatan qarshi himoya qilish hissi”[2]. Aslini olganda, amaliy maqsadlar uchun etnosentrizm umuminsoniy qadriyatdir. Har bir shaxs o`zining madaniyatini hurmat qilishi joiz, biroq bu jarayon boshqa madaniyat vakillarini obro`sizlantirmasdan amalga oshishi kerak. Buning sababi shundaki, hamma o`zini eng yaxshi madaniyatda tug`ilganman deb o`yaydi va o`z yo`lini eng yaxshi va yagona yo`l deb hisoblaydi. Biron bir shaxs qancha urinmasin o`z madaniyatidan ajralmaydi. Asosan, madaniyatning muhim tarkibiy qismi boshqa madaniyatlarni kamsitishga asoslangan bo`lishi mumkin. Buni stereotiplarga asoslangan iboralarni ishlatadigan ko`plab tillarda ko`rish mumkin, masalan, “tatar bor joyda xatar bor” ya`ni tatar millatiga mansub odamlar boshqalarga xavf solishi mumkin yoki “tojikdan do`sting bo`lsa, yoningda oyboltang bo`lsin” ya`ni bu ibora o`z tarixiga ega dashnoqlar yollanma qotil sifatida turkiylarni genotsid qilgan va ularga tojik tili o`rgatilgan va ular o`zbek qishloqlaridagi odamlarni tojik tilida gapirib o`ldirgan. O`zbek xalqi bir umr tojik xalqi bilan inoq yashagan va bu hodisa orqali ularning o`rtasiga nifoq solmoqchi bo`lishgan. Ishongan do`stining unga qarshi chiqib o`ldirishi o`zbekni pishiq bo`lib, doimo ziyrak bo`lishga ya`ni yonida oyboltasi turishiga ta`kidlagan. Biroq, barcha streetiplar ham kamsitish yoki milliy xurofotga asoslangan bo`lmaydi [4, 56]. G.N.Volkov ta`kidlaganidek, streetipik xususiyatlar xalqlarning kuchliroq va o`ziga xos xususiyatlarini ham ta`kidlaydi. Ushbu tadqiqotching fikriga ko`ra, “aqlli va mag`rur cherkeslar”, “musiqiy ukrainlar”, “do`st va birdam qirg`izlar” kabi streetiplar bugungi kungacha o`z ahamiyatini yo`qotmagan. Sharq va G`arb mutafakkirlarining falsafiy qarashlarida etnosentrizm va uning jamiyat hayotidagi o`rni dolzarb ahamiyat kasb etishi ta`kidlagan. Jumladan, Xitoy faylasufi Konfutsiy “har bir millat boshqa bir millat bilan o`zaro

VOLUME-2, ISSUE-2

munosabatga kirishar ekan, ular o`rtasidagi munosabat birinchi navbatda o`zaro bir-birining urf-odat, an`ana va qadriyatlarini hurmat qilinishiga asoslanishi lozim” deb ta`kidlagan. Shuningdek, Platon turli millatlarning qiziqishlari, xarakter xususiyatlari va fazilatlarini tatbiq etib, ularning turlichaligiga guvoh bo`ladi va ularni quyidagidek sifatlaydi: “yevropaliklarda harbiy xizmatni, yunonlarda faylasuflarni va Finikiyaliklarda esa mol-dunyoni sevish va uni qadrlash” fazilatlarini ko`proq ekanligini ta`kidlaydi [5].

O`tmishda yuz bergen hodisalardan xulosa chiqargan holda, yosh avlodni tarixga murojaat qilishga, taqqoslashga, o`z xulosalarini chiqarishga va saboq olishga undaydi. Masalan, imperalizm, bunda boshqa yerlarni egallab olish amaliyoti bo`lib, yevropa tomonidan XVI asrda keng qo`llangan. Hatto AQSHdagi mustamlakalar ham Britaniya tasavvufida bo`lgan. O`sha paytlar inglizlar Afrika va Amerikani ovchilik va dehqonchilikka asoslangan ibridoij jamiyat deb hisoblar edilar va ularni zamonaviy texnologiyalar bilan rivojlantirish uchun ushbu xalqlarni o`zlariga mustamlaka qilish kerak deb hisoblagan. Etnosentrizmning eng daxshatli va butun dunyoga mashhur namunalaridan biri bu fashistlar Germaniyasiga tegishli. Adolf Gitlerning yahudiy xalqidan, shuningdek boshqa odamlardan nafratlanishi ko`plab begunoh odamlarni lagerlarda qatl etishlariga sabab bo`ldi. Bu albatta etnosentrizmning haddan oshgan holati ya`ni xurofot va bu ko`plab muammolarni olib keladi.

Jamiyat darajasida etnosentrizm turli madaniyat, etnik guruhlar, jins va har xil yoshdagi odamlarga o`zaro ta`sir qiladi. Quldarlik darvidagi zulmlar yoki XX asr boshlarida o`zbek xalqining boshiga kelgan balolarni ko`rsatish oson, lekin etnosentrizm bugungi kunda ham mahalliy, ham siyosiy jihatdan bizni o`rab turibdi. AQSH ko`pincha o`zini boshqa xalqlarga qaraganda siyosiy jihatdan kuchliroq deb o`yaydi va bu boshqa mamlakatlarda yuzaga kelgan vaziyatlarga aralashish huquqini beradi deb hisoblaydi. Bunga yorqin misol qilib dunyo miqyosida bo`layotgan urushlarni olish mumkin masalan, Ukraina yoki Falastindagi vaziyatlar. Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki, etnosentrizm odamlarning munosabatlarini zaiflashiradigan kuchdir. Biz madaniy farqlarga qaramay, hammamiz ham insonmiz. Musulmon va yahudiy, oq va qora, xitoylik yoki yevropalik va boshqalar o`rtasida ichki farq yuq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Le Vine R.A., Campbell D.T. Ethnocentrism: Theories of Conflict, Ethnic Attitudes and Group Behavior. N.Y., 1972.
2. Sumner W. Folkways. New Haven, 1906.

VOLUME-2, ISSUE-2

3. Xoliqov L. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida millatlar va millatlararo munosabatlar rivoji. Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro – 2023. 56 b.

4. Гарипов Р.К. Толерантность и национальное самосознание: для студентов с углубленным изучением истории и культуры ислама. Уфа. БашГПУ им. М.Акмуллы. 2011. 189 с.